

Raqobatni rivojlantirish indeksining 2025 yil bo'yicha dastlabki natijalari

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 8 apreldagi PF-101-son Farmoni hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023 yil 30 oktyabrdagi 577-son qaroriga asosan Iqtisodiyotda raqobat muhiti holatini baholash bo'yicha **Raqobatni rivojlantirish indeksi** (*keyingi o'rinlarda – Indeks*) joriy qilingan.

Indeks tadbirkorlik va investitsiya muhitini yaxshilashga qaratilgan ma'muriy, tartibga soluvchi islohotlarni hamda amaldagi raqobat siyosatining samaradorligini baholaydi.

2025 yil uchun Raqobatni rivojlantirish indeksi natijalariga ko'ra, dastlabki ko'rsatkich **2,24 band**ni tashkil etdi, bu esa o'z navbatida mamlakatda raqobat rivojlanganlik darajasi **o'rtacha raqobatbardosh** hisoblanadi.

Ma'lumot uchun: Raqobatni rivojlantirish indeksi **0 dan 6 gacha** bo'lgan shkala bo'yicha baholanadi va kichikroq qiymat raqobat uchun qulay muhitni aks ettiradi. Bunda, 0 dan 2 gacha shkala bozor muhiti raqobatbardosh, 2 dan 3 gacha shkala bozor muhiti o'rtacha raqobatbardosh, 3 dan 4 gacha shkala bozor muhiti raqobatbardosh emas, 4 dan 6 gacha shkala esa bozor muhiti mutlaq raqobatbardosh emasligini, bozorlarda raqobatni rivojlantirish uchun sharoit mavjud emasligini bildiradi.

Indeksning dastlabki natijalari 2024 yilga nisbatan **0,15 bandga yaxshilangan** bo'lsada, davlat korxonalari soni, Iqtisodiyot tarmoqlaridagi yirik ishtirokchilarda davlat ulushi, davlat va xususiy korxonalarining bozordagi ulushlari nisbati, davlat korxonalarini boshqarish va energiya resurslari ishonchliligi va undan barqaror foydalanish kabi indikatorlar yakuniy vaznga salbiy ta'sir etmoqda.

Shuningdek, **energetika, havo va temir yo'l transporti, neft va gazni qayta ishlash sohalarida** davlatning yuqori ishtiroki saqlanib qolinayotganligi, raqobat muhiti yetarli rivojlanmaganligi aniqlandi. O'z navbatida, oziq-ovqat va qurilish materiallari ishlab chiqarish sohasidan raqobat muhiti shakllanishida ijobiy tendensiyalar kuzatilgan.

Raqobat muhiti indikatori tahlil natijasiga ko'ra, **davlat ishtiroki yuqori bo'lgan sohalar** (*energetika, havo va temir yo'l transporti, neft va gazni qayta ishlash, rangli va qora metallar*) qatorida davlat ishtiroki mavjud bo'lmagan bir qator tarmoqlarda (*ushbu yo'nalishda o'rganishlar davom etmoqda*) raqobat muhiti yetarli darajada rivojlanmagan. Raqobat qo'mitasi va tegishli vazirlik va idoralar bilan birgalikda ushbu sohalarda yangi loyihalarni amalga oshirish orqali raqobat ulushini oshirish imkoni mavjud.

Shuningdek, **energiya ta'minotida asossiz ravishda uzilishlar uchun yetkazib beruvchining javobgarligi qat'iy belgilanmaganligi**, uzilishlar paytida yuzaga kelgan zararni qoplash bo'yicha samarali mexanizmning mavjud emasligi ushbu indikator qiymatiga ta'sir ko'rsatgan. Energiya va gaz yetkazib beruvchi korxona tomonidan asossiz uzilishlarni oldini olish hamda yetkazib beruvchi aybi bilan tadbirkorlik faoliyatiga zarar yetkazilganda, zararni qoplashning mexanizmini joriy etish lozim.